



THE IMPORTANCE OF ANCIENT AND MEDIEVAL WRITTEN SOURCES IN FOLK ORAL LITERATURE

Sitora Nosirova

Independent Researcher

Termez State University

E-mail: sitora.nosirova.24@gmail.com

Termez, O'zbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Zoroastrianism and its holy book "Avesta", epics such as "The Young Man with the Golden Crown", "Guliqahqah", "The Birth of Goroglu" and "Gulixiromon", Orkhon inscriptions - the memoirs of Kultigin, Bilga Khokan, and Tunyukuk.

Abstract: This article analyzes the historical background of the Uzbek people, their way of life, values, and worldview, which are deeply reflected in their oral folklore. Ancient and medieval sources, written monuments, epics, legends, and traditions are considered important scientific sources for studying the ethnic composition of the oasis, the formation of tribes and clans, and the roots of its customs and rituals.

Received: 15.02.26

Accepted: 16.02.26

Published: 17.02.26

XALQ OG'ZAKI IJODIDA QADIMGI HAMDA O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARINING AHAMIYATI

Sitora Nosirova

Mustaqil izlanuvchi

Termiz davlat universiteti

E-mail: sitora.nosirova.24@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto", "Zar kokilli yigit", "Guliqahqah", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Gulixiromon" kabi dostonlar, O'rxun bitiklari - Kultigin, Bilga Xoqon, To'nyuquq yodnomalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xalqi tarixan boy madaniy va ijtimoiy hayotga ega bo'lib, ularning turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashi xalq og'zaki ijodida chuqur aks etgan. Qadimgi va o'rta asrlardagi manbalar, yozma yodgorliklar, dostonlar, afsonalar va rivoyatlar vohaning etnik tarkibi, qabila va urug'larining shakllanishi, urf-odat

va marosimlarining ildizlarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanishi tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

ЗНАЧЕНИЕ ДРЕВНИХ И СРЕДНЕВЕКОВЫХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Ситора Носирова

Независимый исследователь

Термезский государственный университет

E-mail: sitora.nosirova.24@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зороастризм и его священная книга «Авеста», эпосы, такие как «Юноша с золотой короной», «Гуликахка», «Рождение Гороглу» и «Гулихириомон», орхонские надписи — мемуары Культигина, Бильги Хокана и Тунюкука.

Аннотация: В данной статье анализируется исторический контекст узбекского народа, его образ жизни, ценности и мировоззрение, глубоко отраженные в устном фольклоре. Важными научными источниками для изучения этнического состава оазиса, формирования племен и кланов, а также корней его обычаев и ритуалов считаются древние и средневековые источники, письменные памятники, эпосы, легенды и предания.

Kirish. Bundan uch ming yil ilgari paydo bo'lgan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto" xalq og'zaki ijodining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Avestoda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashlar tasvirlangan bo'lib, bu qadriyatlar xalq rivoyatlari va dostonlarida syujet va obrazlar orqali uzviy davom ettirilgan.

Masalan, "Zar kokilli yigit", "Guliqahqah", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" va "Gulixiromon" kabi dostonlarda qush pati detali ko'pincha qahramonga ko'maklashuvchi homiy kuchlar bilan bog'liq mifologik timsollardan biri sifatida aks etadi. Ushbu tasavvurlar Avestodagi Varag'e qushining sehrli patlari haqidagi asotiriy qarashlardan ildiz olgan.

Shu tarzda xalq qalbida orzu, umid va qadriyatlar doston va rivoyatlarda jonli aks etgan. Shuningdek, zardushtiylik urf-odatlarini shakllan o'zgargan bo'lsa-da, ular xalq turmush tarziga singib ketgan; masalan, yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazilgan Sust xotin marosimi, Amudaryo suvining mo'l bo'lishi va toshqinlarning oldini olish uchun afsonaviy homiy sharafiga xo'kiz so'yib qurbonlik qilish, Navro'z bayrami, sumalak pishirish, bahor sayllari - boychechak, lola va qizil gul sayllari, olov atrofidagi marosimlar, kelin-kuyovni aylantirish, shamol chaqirish va sumalak saylida Ashshadarozi o'yinini o'tkazish, daryodan o'tayotganda Xubbiga sig'inish va suvga tuz tashlash kabi amaliy urf-odatlar xalq og'zaki ijodida saqlangan[1. 123]. Qadimiy

turkiy-run yozuvlari, xususan, Mo'g'uliston va Janubiy Sibirda topilgan O'rxun-Enasoy bitiklari, shuningdek O'zbekiston hududidagi 20 dan ortiq turkiy-run yodgorliklari Surxon-Sherobod va atrof hududlar aholisi ijtimoiy-siyosiy hayoti, qadriyatlari va madaniyati haqida muhim ma'lumot beradi. Yirik O'rxun bitiklari - Kultigin, Bilga Xoqon, To'nyuquq yodnomalari qahramonlik qissalari va dostonlarni o'z ichiga oladi, Enasoy bitiklari esa qadimgi marsiya va madhiya janrlarini, xalq urf-odatlarini namoyon qiladi.

Shu bilan birga, Tabariy va Abu Rayhon Beruniy kabi Sharq olimlarining asarlari xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalari va urf-odatlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Beruniy xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari va marosimlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilgan, ularning dunyoqarashi va tarixiy xotirasini aks ettirgan[2. 89].

Adabiyotlar tahlili. Arablar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat va urf-odatlar sohasida katta o'zgarishlar yuz bergan. Nikoh va xatna marosimlari, qalin puli to'lovi, shartnoma tuzish kabi an'analar islom madaniyati ta'siri ostida shakllangan. Masalan, Abul Fazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy" asarida nikoh shartnomasi, mahr miqdori va tomonlarning majburiyatlari qayd etilgan bo'lib, bu xalq og'zaki ijodida ham aks etgan[3. 223].

XVII asrda Turkiston Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklariga bo'lingan edi. Shu davr tarixiy manbalari xalq og'zaki ijodini o'rganishda muhimdir. Abulg'azi Bahodirxon "Shajarai Turk" va "Shajarai Tarokima" asarlarida turkiy va mo'g'ul qavmlarning qabila va urug'lari, etnonimlar, rivoyat va afsonalar, maqol va matallar bilan boyitilgan. Odam ato avlodlari, Nuh payg'ambar va Turk, Mo'g'ul xalqlari tarixi syujet orqali ifodalangan[4. 217].

Shu bilan birga, Mirza Abdulazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya" asarida XIX-XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayot, og'zaki ma'lumotlar va tarixiy jarayonlar boyitilgan.

Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida turkiy xalqlarning etnik tarkibi, urug'-qabilaviy tuzilishi, urf-odatlari va madaniy merosi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. U 8 bo'limdan iborat asarda 7500 dan ortiq turkiy so'z va iboralarni izohlagan bo'lib, qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, shuningdek, 700 satrdan oshiq she'riy parchalarni jamlagan. Turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, dunyoqarashi va etnik o'zligi epos, qissa va dostonlar orqali ifodalangan[5. 69].

Muhokama. Muallifi noma'lum "Tavorih-i guzida-yi nusrat-name" esa Oltin O'rda va Dashti Qipchoqda yashagan qavm va urug'lar, jumladan arg'un, do'rmon, qo'ng'iroq, mang'it, uyg'ur, o'g'uz, qipchoq, turkman va boshqa etnonimlar tarixi va qabilaviy tuzilishini rivoyat shaklida bayon qiladi. Masalan, qipchoq etnonimi bir jang voqeasi orqali "daraxt kovagida tug'ilgan bola" sifatida shakllanishi dostoniy tarzda hikoya qilinadi[6. 91].

Bundan ko‘rinib turibdiki, aholi turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odat va marosimlari xalq og‘zaki ijodida jonli ifodalangan. Dostonlar, afsonalar va rivoyatlar orqali avlodlar tarixiy xotira, ijtimoiy munosabatlar va etnik o‘zlikni saqlab kelgan. Qadimiy manbalar Avesto, O‘rxun-Enasoy bitiklari, Beruniy, Abulg‘ozi Bahodirxon, Mahmud Qoshg‘ariy va boshqa tarixiy yodgorliklar bu ijodning ildizini ochib beradi, xalqning tarixiy tafakkurini, qadriyat va urf-odatlarini ilmiy jihatdan tushunishga imkon yaratadi[7. 139].

Natijalar. Xalq og‘zaki ijodida etnik tarkib masalasi faqat etnonim va urug‘ nomlari orqali emas, balki turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati hamda madaniy an‘analar tasviri vositasida ham ifodalanadi. Folklor namunalarida muayyan etnik guruhlarining kundalik hayoti, yashash muhiti va ijtimoiy munosabatlari badiiy obrazlar orqali gavdalantiriladi.

Surxondaryo vohasi aholisi tarixan yarim ko‘chmanchi turmush tarzini olib borgan bo‘lib, ularning xo‘jalik hayotida chorvachilik va dehqonchilik yetakchi o‘rin tutgan. Mazkur iqtisodiy faoliyat turlari nafaqat moddiy hayot asosini tashkil etgan, balki madaniy an‘analar va marosimlar tizimida ham muhim aks etgan[8. 69].

Shu bilan birga, baxshichilik an‘analari, termalar hamda turli xalq qo‘shiqlarida voha aholisining mehnat jarayonlari, mavsumiy xo‘jalik ishlari va turmush tarzi keng badiiy ifodasini topgan. Bu holat etnik guruhlarining kundalik hayoti, dunyoqarashi va madaniy xususiyatlarini folklor materiallari asosida kompleks o‘rganish imkonini yaratadi[9. 121].

Xulosa. Shu bilan birga, Surxon–Sherobod vohasi dostonlari nafaqat qahramonlarning jasorat va sarguzashtlarini, balki voha aholisining ijtimoiy hayoti va oilaviy munosabatlarini ham batafsil yoritadi. Mazkur dostonlarda oila a‘zolarining ijtimoiy rollari, oilaviy hurmat va yordam tamoyillari, shuningdek, xalq davolash usullari, urf-odat va marosimlar badiiy obrazlar orqali aks ettiriladi[10. 86].

Shu asosda aytish mumkinki, Surxon–Sherobod vohasi xalq og‘zaki ijodi nafaqat boy badiiy meros, balki mintaqa aholisining tarixiy-etnik tarkibi, urug‘-aymoq tuzilishi, madaniy xotira va urf-odatlarini saqlovchi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Dostonlarda uchraydigan qo‘ng‘irot etnonimi qahramonlarning kelib chiqishi va voha tarixiy konteksti bilan bog‘lanib, etnik xotira hamda ijtimoiy munosabatlarni avloddan-avlodga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, xalq og‘zaki ijodi Surxon–Sherobod vohasi etnos tarixini, etnik xotirani, madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy hayotning turli jihatlarini saqlash va o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авесто. Яшт китоби. Худо Ахура Мазда ва у яратган маъбудалар шаънига айтилган алқовлар. М. Исҳоқов таржимаси. - Тошкент: Шарқ, 2001.

2. Аширов А. «Авесто» дан мерос маросимлар. – Т.: Халқ мероси, 2001.
3. Мирзаев Т., Жўраев М. Авесто ва халқ оғзаки ижоди // Авесто ва унинг инсоният тараккиётидаги ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. - Т.; 2001. – Б. 46-49.
4. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. Т.1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Т.: Фан, 1968.
5. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. Т.2. Ҳиндистон. – Т.: Фан, 1965.
6. Абул-Фазл Байҳақи. История Масъуда. (1030-1041). Перевод с персидского, введение, комментарий и приложения А.К.Арендса. Издание 2-е дополненное. - М.1969.
7. Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси. - Тошкент: Extremum Press, 2011.
8. Акрамов А. М. Таварих-и гузида - Нусрат-наме. Сочинение анонимного автора XVI в. // Автореферат дис. на соискание учен. степени кандидата филол. наук / АН УЗССР, Ин-т востоковедения им. Абу Райхана Бируни. - Ташкент: Наука, 1965.
9. Fayzullayeva M. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati (Surxon vohasi materiallari asosida). Tarix fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023.
10. Kichkilov Sh. Ko'hitang tog' qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an'anaviylik va transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025.